

**OSIYO VA TINCH OKEANI IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI
(APEC) FAOLIYATI MISOLIDA OSIYO MINTAQASIDA AXBOROT
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

Sa'dullayev Akbar Otaniyoz o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti magistranti

Ilmiy rahbar: Nugmanov Nugman Abdullayevich

(yuridik fanlar doktori (DSc), professor)

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor v.v.b

ANNOTATSIYA

Quyidagi maqola orqali axborot xavfsizligini transchegaraviy jihatdan ta'minlash jarayonlarida mintaqaviy tashkilotlardan biri bo'lgan Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC) tomonidan amalga oshirilgan ishlar va axborotni himoya qilishga oid me'yoriy hujjatlar tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi; Birlashgan Millatlar Tashkiloti; Barqaror rivojlanish maqsadlari; Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti; Maxfiylik qoidalari; Transchegaraviy Maxfiylik qoidalari (CBPR)

**MAINTAINING INFORMATION SECURITY IN THE ASIAN REGION
AS AN EXAMPLE OF THE ACTIVITIES OF THE ASIA-PACIFIC
ECONOMIC COOPERATION ORGANIZATION**

ABSTRACT

The following article describes the work done by Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC), one of the regional organizations, in cross-border information security and review of information security-related regulations.

Key words: Universal Declaration of Human Rights; United Nations; Sustainable Development Goals; Asia-Pacific Economic Cooperation Organization; Privacy Policy; Cross-Border Privacy Policy (CBPR).

АННОТАЦИЯ

В следующей статье описывается работа, проделанная Азиатско-Тихоокеанским экономическим сотрудничеством (АТЭС), одной из региональных организаций, в процессе трансграничной безопасности информации и анализа нормативных документов, связанных с защитой информации.

Ключевые слова: Всеобщая декларация прав человека; Объединенные Нации; Цели устойчивого развития; Организация Азиатско-Тихоокеанского

экономического сотрудничества; Политика конфиденциальности; Политика трансграничной конфиденциальности (CBPR)

Inson huquq va erkinlari orasida axborotga bo‘lgan huquq, uni olish va erkin tarqatish inson uchun bugungi XXI asrda hayotiy zaruriyatga aylanib borayotgani sir emas. Globallashuv jarayonlarida axborotning ahamiyati nihoyatda muhimligini davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning har taraflama kengayishi, integratsiya jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilayotganligini aytish mumkin. Kundalik ijtimoiy tarmoqlardan tortib birja savdolarigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda axborot o‘zining qanday o‘rinlarga ega ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

Axborotga bo‘lgan huquqlar insoniyatning eng avvalgi bo‘lmasa ham uzoq tarixga ega huquqlaridan biri hisoblanadi. II jahon urushidan keyin global miqyosida inson va fuqarolarning o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib axborotni izlash, tarqatish jarayonlari, davlat organlaridan tegishli ma‘lumotlarni erkin so‘rash kabi bir qator erkinlar uchun kurashlar bu jarayonlari kengaytirishi bilan qatorda huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun harakatlar avj oldi. Inson huquqlari bo‘yicha universal Deklaratsiyaning 19-moddasida fikr bildirish erkinligi, shuningdek, har qanday ommaviy axborot vositalari orqali ma‘lumot va g‘oyalarni izlash olish va tarqatish erkinligi ham mustahkamlab o‘tildi.

Shundan so‘ng bunday erkinlikning fundamental jihatdan mustahkamlashga kirishildi. Jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro Paktning 19-moddasida axborot olishga bo‘lgan huquq faqat muayyan sharoitlardava ma‘lum qonuniy chegaralar doirasida cheklanishi mumkinligi belgilangan bo‘lsa, 2015-yil Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) a‘zo mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (16-maqсад)¹ barcha xalqlar uchun adolatdan foydalanish imkoniyatiga ega tinch va inklyuziv jamiyatlar shakllantirish, samarali, hisobdor va shaffof institutlarni rag‘batlantirishga urg‘u berilgani holda axborot olish va so‘z erkinligi ushbu maqsadga erishishning ajralmas qismi ekanligi alohida ta‘kidlandi.

BMT tomonidan axborot erkinligi ta‘minlash birlamchi maqsadlaridan biri ekanligi anglash qiyin emas, chunki axborotga bo‘lgan huquqning to‘laqonli ta‘minlanishi mamlakatda barcha sohalarning uzviy rivojlanishiga ko‘maklashadigan, siyosiy ongi va madaniyati yuqori bo‘lgan aholi orqali kuchli fuqarolik jamiyati qurishga olib boruvchi o‘ziga xos yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Kuchli fuqarolik jamiyati, o‘z navbatida, davlat siyosiy hayotida turli xildagi xurujlarning avj olishini minimallashtirishda katta o‘rinni egallaydi. Har qanday mamlakatni o‘nglab bo‘lmas

¹ <https://www.sdgs.un.org/goals>

chuqurga olib boruvchi korrupsiyaga qarshi kurashishda ham axborot olish huquqi muhim sanalgan.

Dastavval axborot olish erkinlashtirish uchun kurashgan insoniyat endilikda axborotni o‘zidan himoya qilish ustida bosh qotira boshladi, ya’ni zararli axborot o‘z-o‘zidan ishonchli bo‘lgan axborotni surib chiqarib “ommaviy aldanish” larni keltirib chiqara boshladi. Temiryo‘l grafiklari o‘zgartirilishi natijasida texnik halokatlarning ko‘payishi, gidroelektrostansiyalar faoliyatini masofadan turib buzib yuborilishi natijasida joylashgan hududdagi aholini elektr energiyasidan mahrum qilish, kompyuter sabotajini uyushtirish yoki bo‘lmasa davlatdagi siyosiy jarayonlarning kulminatsiyasi bo‘lgan saylov jarayonlariga aralashish juda ham ko‘paydi.

Mavjud bo‘lgan 200 dan ortiq mamlakatlarda bir xilda yagona tizim orqali axborot xavfsizligini ta’minlash uddalab bo‘lmas va juda chigal jarayon ekanligini barcha bilgani holda mazkur choralarni muvofiqlashtirishda mintaqaviy tashkilotlar muhimligini ta’kidlash lozim.

Prezidentimizning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida aynan axborot xavfsizligi sohasidagi ishlar miqyosini yangi boshqichga ko‘tarish, chora-tadbirlarning ijrosini yanada jadallashtirish lozimligini ilgari surib kelmoqdalar. Jumladan joriy yil 4-iyulda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari Kengashi majlisida “...shuningdek, ko‘p tomonlama muhim hujjatlar – Axborot texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma hamda SHHT makonida ekstremistik mafkuraga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma dasturni tayyorlash va qabul qilishni tezlashtirishimiz lozim” degan fikrni aytib o‘tdilar².

Yuqoridagi Prezidentimiz fikrlarini o‘zigina tashkilot miqyosida muammoning yechimi yanada samaraliroq bo‘lishi va ijro ishlari o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta’minlashi mumkinligini bildiradi.

Endilikda mintaqa miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlash hamda ularda tashkilotlar faoliyatini yoritib o‘tishdan oldin BMT miqyosida mazkur faoliyat bo‘yicha olib borilgan ayrim ishlarni ko‘rib o‘tsak.

BMTning Axborot qo‘mitasi tashkilotning yordamchi organi bo‘lib, Bosh Assambleyaning o‘zining 34-sessiyasida 1978-yil 18-dekabrda 33/115C rezolyutsiyasiga asosan tashkil qilingan BMT Axborot siyosati va faoliyatini tahlil qilish qo‘mitasini saqlab qolishga qaror qiladi, bu tuzilma keyinchalik Axborot qo‘mitasi nomini oladi. Umumiy axborot masalalarni hal qilish uchun tuzilgan mazkur qo‘mita Global kommunikatsiyalar departamenti ishini nazorat qilish, departamentning faoliyat yo‘nalishi, dasturlari yuzasidan ko‘rsatmalar berishni amalga oshiradi³.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari Kengashidagi nutqi, www.president.uz/uz/lists/view/6457

³ <https://www.un.org/en/ga/coi>

Axborot qo‘mitasining vakolatlari Bosh Assambleyaning 1979-yil 18-dekabrda 34/182-rezolyutsiyasi bilan belgilab o‘tilgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

– BMTning ommaviy axborot siyosati va faoliyatini xalqaro munosabatlarning evolyutsiyasi, ayniqsa, so‘nggi yigirma yil ichida, shuningdek, yangi xalqaro iqtisodiy tartib va yangi dunyo axborot va kommunikatsiyalarni vujudga kelish nuqtayi nazaridan o‘rganishni davom ettirish;

– BMT tizimi tomonidan axborot va kommunikatsiyalar sohasida amalga oshirilgan sa‘y-harakatlarni hamda erishilgan yutuqlari baholab borish va kuzatish;

– Tinchlik va xalqaro hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan va aborotning erkin aylanishi, kengroq va muvozanatli tarqatilishiga asoslangan yangi, adolatli va samaraliroq jahon axborot va kommunikatsiya tartibini o‘rnatishga ko‘maklashish va ular bo‘yicha Bosh Assambleyaga tavsiyalar berish⁴.

Shuningdek, BMT ning fikr va so‘z erkinligi bo‘yicha maxsus ma‘ruzachilari faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular xalqaro miqyosida axborot va so‘z erkinligi bilan bog‘liq muammolarni kuzatib boradilar, hisobot tayyorlaydigan va tegishli davlatlarga holatni yaxshilashga qaratilgan qator tavsiyalarni berib boradilar.

Osiyo mintaqasidagi mazkur yo‘nalishda Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti axborot xavfsizligi ta‘minlashda salmog‘li ishlari amalga oshirishi bilan mazkur mintaqadagi boshqa tashkilotlardan ajralib turadi.

Avvalo, 10 ta a‘zo mamlakat bilan o‘z faoliyatini boshlagan mazkur tashkilot keying 32 yil ichida Tinch okeani havzasidagi 21 ta mamlakatni birlashtira oldi. 2020-yilgacha APEC davlatlar jahon aholisining 38 foizini, xalqaro YAIMning 68 foizini, xalqaro savdo va xizmatlarning 48 foizini aynan mana shu tashkilotga a‘zo davlatlar egalik qiladi. 1989-yilda tashkil etilganida 17 foizlik tariflar 2018-yilda 5.3 foizgacha qisqartirishga erishilganligi mazkur tashkilotning eng katta yutuqlaridan biri sifatida ko‘riladi⁵.

Mazkur Tashkilot tomonidan qabul qilingan Maxfiylik qoidalari alohida ahamiyatga ega. A‘zolari soni 21 tani tashkil qiladigan, turli xil huquqiy makon va madaniyatlarni birlashtirgan tashkilotda bunday huquqiy hujjatning qabul qilinishi mintaqa mamlakatlari uchun axborot xavfsizligini ta‘minlash iqtisodiy hamkorlik bilan tengma-teng e‘tibor qaratilgan masala sifatida ko‘rilishini anglash qiyin emas.

Bevosita Maxfiylik qoidalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, garchi yuridik jihatdan Tashkilot a‘zolari uchun majburiy emasligi belgilangan bo‘lsa ham, mazkur hujjatni qabul qilish a‘zo davlatlar o‘z fuqarolarining shaxsiy daxlsizligi bo‘yicha

⁴ <https://www.daccess-ods.un.org/tmp/7951567.7690506.html>

⁵ Pantri M.E, Faishal M., The role and significance of the Asia-pacific economic cooperation (APEC) in the modern Asia-Pacific region http://doi.fil.bg.ac.rs/pdf/eb_ser/iipe_ioscw/2022-2/iipe_ioscw-2022-2-ch7.pdf

milliy qonunlari, siyosatlari va amaliyotlarini ixtiyoriy ravishda ushbu doirada bayon etilgan tamoyillar va ko'rsatmalarga muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi.

APECning Maxfiylik qoidalari quyidagi e'tirof etgan holda ishlab chiqilgan va ustuvorlik sifatida belgilab o'tilgan, jumladan

- shaxsiy ma'lumotlarning, xususan, ularning noto'g'ri foydalanilishi va tajovuz qilinishi natijasida zararli oqibatlar olib kelishini oldini olishga qaratilgan maxfiylik himoyasini amalga oshirish;

- rivojlangan va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotidagi savdo-iqtisodiy va ijtimoiy o'sich uchun axborotning erkin oqimini ta'minlash;

- APECga a'zo mamlakatlarda ma'lumotlarni to'playdigan, ularga kirish, foydalanish yoki qayta ishlash bilan shug'ullanadigan global kompaniyalarga shaxsiy ma'lumotlarga global kirish va ulardan foydalanish bo'yicha o'z tashkilotlarida yagona yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon berish;

- maxfiylikni muhofaza qilish organlariga shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlarini bajarish huquqini berish;

- maxfiylikni rag'batlantirish va qo'llash hamda APEC iqtisodiyotlari va ularning savdo hamkorlari o'rtasida axborot oqimining uzluksizligini ta'minlash uchun xalqaro va mintaqaviy mexanizmlarni, jumladan, APEC Transchegaraviy mavfiylik qoidalari tizimini takomillashtirish;

- Tashkilotni o'z nazorati ostidagi barcha shaxsiy ma'lumotlar uchun javobgarlikni rag'batlantirish;

- Boshqa mintaqalar bilan maxfiylikni ta'minlash bo'yicha kelishuvlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkam.

Hujjatning ustuvorliklari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, axborot mazkur tashkilotda iqtisodiy taraqqiyot lokomativi sifatida ko'rishimiz mumkin. Davlat o'rtasida o'zaro xavfsiz va ishonchli axborot, u xoh iqtisodiy yoki iste'molchilar haqidagi bo'ladimi uning erkin oqimi iqtisodiy integrasiyalashuvga yo'l ochishiga, shu bilan bir qatorda, axborot bilan muomala qilagan subyektlarning huquq va majburiyatlari o'rtasida chegara bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Axborotning tijoriyligi masalasi boshqa turdagi axborotlarga nisbatan yuqori baholanishi hisobga olinsa mintaqa mamlakatlari iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashda axborot almashinuviga nihoyatga ehtiyoj sezishlari va daromad ko'rishlarini quyidagi statistik ma'lumotlar isbotlab turibdi, jumladan mintaqalar kesimida xalqaro axborot oqimlarining keltiradigan foydasi bo'yicha Yevropa 500 milliard dollardan ortiq foyda bilan birinchi o'rinda ketayotganligini ko'rish mumkin. Undan keying eng yuqori natijani Osiyo qayd qilgan (200 milliard dollar). So'nggi

o‘rinlarni 100 milliard dollar bilan Lotin Amerikasi va 10 milliard dollar bilan Afrika egallab turibdi (2021-yil)⁶.

Aynan ma’lumotlar firmalar uchun innovatsiyalar, ishlab chiqarish va raqobat uchun asosiy aktiv bo‘lishi va ma’lumotlar oqimining ko‘lami xalqaro mehnat taqsimotiga ta’sir qilishi ulkan daromad manbayi hisoblanadi. Ma’lumotlarning transchegaraviy oqimlari qiymatini taqsimlash global ma’lumotlarni boshqarish, savdo, investitsiyalar, rivojlanish va soliq siyosati uchun muhim mavzu sanaladi. Biroq, butun dunyo bo‘ylab siyosatchilar ma’lumotlar oqimlari bo‘yicha kelishuvlari hamon davom etmoqda.

Yuqoridagi APECning Maxfiylik qoidalarida belgilangan ustuvorliklardagi Transchegaraviy maxfiylik qoidalari aynan iqtisodiy ma’lumotlar oqimining mintaqa bo‘ylab erkin va xavfsizlik harakatlanishiga ko‘maklashuvchi me’yoriylarni belgilangani bilan ham xarakterlanadi.

APECning Transchegaraviy Maxfiylik qoidalari (CBPR) tizimi 2011-yil tashkilot yetakchilari tomonidan ma’qullangan bo‘lib, APEC mamlakatlari o‘rtasida maxfiylikni hurmat qiluvchi, ma’lumotlar oqimini osonlashtiradigan ixtiyoriy, hisobdorlikka asoslangan tizimdir.

Ushbu tizim 4 ta tarkibiy qismlarni birlashtiradi:

- APEC CBPR tizimining sertifikatlangan Hisobdorlik agenti bo‘lishni istagan tashkilotlar uchun tan olish mezonlari;

- uchinchi tomon CBPR tizimining sertifikatlangan Hisobdorlik agenti tomonidan muvofiq bo‘lgan APEC CBPR tizimi sifatida sertifikatlanmoqchi bo‘lgan tashkilotlar uchun qabul qilish so‘rovnomasi;

- APEC CBPR tizimi tomonidan tasdiqlangan Hisobdorlik agentlarining qabul qilingan so‘rovnomaga tashkilotning javoblarini ko‘rib chiqishda foydalanishni baholash mezonlari;

- APEC CBPR tizimi dasturi talablarining har bir ishtirokchisi APEC iqtisodlari tomonidan bajarilishini ta’minlash uchun tartibga soluvchi hamkorlik kelishuvi (CPEA).

Qo‘shma nazorat guruhi (Joint Oversight Panel - JOP) APEC CBPR tizimini boshqarishni tashkil qiladi. Tashkilotning Hisobdorlik agenti bo‘lish huquqiga oid qarorlari APEC mamlakatlari tomonidan qabul qilinadi. Hozirda APEC CBPR tizimida to‘qqizta mamlakatlar ishtirok etmoqda. AQSH, Meksika, Yaponiya, Kanada, Singapur, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Xitoy Taypeyi va Filippining tez orada bu qoidalarga qo‘shish jarayonlari ketmoqda⁷.

⁶ Wendy C.Y.Li. Global Distribution of Economic Values of Data and Data Flows, Moon Economics Institute. Revision date January 5, 2023. 13-pg

⁷ [https:// www.cbprs.org/about-cbprs/](https://www.cbprs.org/about-cbprs/)

Ushbu tizimning ishlashi ko‘plab yengilliklarni vujudga keltiradi. Umuman olganda, maxfiylik qoidalarni mamlakatdan mamlakatga qarab farq etishi natijasida oddiy biznes maqsadlari uchun to‘planadigan shaxsiy ma‘lumotlarni uzatishda sezilarli cheklovlarga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun tashkilotning boshqa a‘zolari muayyan muammolarga duch kelishlari mumkin. APECning Transchegaraviy maxfiylik qoidalari tizimi APEC mintaqasidagi ishtirokchi iqtisodlar o‘rtasida shaxsiy ma‘lumotlar almashinuvi uchun yagona asosni ta‘minlash orqali bunday farqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Hozirda faqat APEC tomonidan tan olingan Hisobdorlik agenti tomonidan sertifikatlangan tashkilotlar muhr, ishonch belgisi yoki CBPR tizimida ishtirok etish uchun boshqa huquqlarni ko‘rsatishi mumkin. CBPR tizimida ishtirokchining noto‘g‘ri ko‘rsatilishi tashkilotning tegishli huquqni muhofaza qilish choralarga “nishon” bo‘lishiga olib kelishi hech gap emas.

APEC CBPR tizimi ishtirokchi mamlakatlarning har biriga xalqaro ma‘lumotlarni uzatish uchun yagona, yaxslit maxfiylik standartlariga tayanishga imkon beradi, shu bilan birga Osiyo, Tinch okeani va Lotin Amerikasidagi bir nechta yurisdiksiyalarda maxfiylik standartlariga tayanilishini ta‘minlaydi. Avstraliya mehmonasi butun dunyo bo‘ylab mijozlarga Yaponiyadagi to‘lov protsessoriga va uchinchi biznesga tayanib xizmat ko‘rsatishi yoki Singapurdagi ma‘lumotlar barazsidan xavfsiz va samarali bulutli ma‘lumotlar xizmatlaridan foydalangan holda Filippin va Indoneziyadagi biznes vakillarining jarayonlarda ishtirok etishida aynan APECning CBPR tizimi markaziy o‘rinni egallaydi⁸.

APEC CBPR tizimi zamonaviy savdo shartnomalarida tobora ko‘proq sheriklari o‘rtasidagi raqamli hamkorlikni ta‘minlash choralari sifatida ommalashib bormoqda. Misol uchun, AQSH, Meksika, Kanada kelishuvi (USMCA) tomonidan CBPR tizimi “shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishda transchegaraviy ma‘lumotlar uzatishni osonlashtiringning amaldagi mexanizmi” deya tan oldilar⁹. Trans-Tinch okeani hamkorligi bo‘yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv (CPTPP) qatnashchilari **“bu turli xil rejimlar o‘rtasidagi muvofiqlikni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishni ta‘minlovchi”** sifatida ko‘riladigan CBPR tizimi boshqa mintaqalarda mavfiylik standartlari bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun asos yaratadi va mamlakatlarga XXI asrdagi savdo muzokaralari standartiga javob berish va shu bilan hukumatlarga savdoni yanada kengroq rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Mazkur tizimning iqtisodiy jarayonlarda tobora keng qamrovda qo‘llanilib kelinayotganligi undagi hisobdorlik masalalari yaxlit holda hamda amaliyotdagi bo‘shliqlarni oldini olishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Ko‘pincha, mintaqaviy

⁸ The APEC CBPRs: Protecting information, driving growth, enabling innovation. Developed and published by www.cmintl.com © C&M International, 2018 4-pg

⁹ https://www.wiley.law/newsletter-Mar-2020-PIF_The_USMCAs_Impact_on_Digital_Trade_and_Data_Transfers

yoki global miqyosida qabul qilinadigan hujjatlarning ishlab keta olishi aynan uni amalga oshirayotgan davlat, tuzilma uchun hisobdorlik masalalari qay darajada yo‘lga qo‘yilganligiga ham bog‘liq.

Hisobdorlik masalalari CBPRning IX bobida yoritib o‘tilgan. Unga ko‘ra shaxsiy ma‘lumotlar nazoratchisi mazkur hujjatda abyon etilgan prinsiplarga ta‘sir ko‘rsatadigan choralarga rioya qilish uchun javobgar bo‘lishi kerakligi belgilangan. Shaxsiy ma‘lumotlar mahalliy yoki xalqaro miqyosda boshqa shaxs va tashkilotga o‘tkazilishi kerak bo‘lganda shaxsiy ma‘lumotlar nazoratchisi ushbu shaxsning roziligini olishi yoki tashkilotning o‘zini himoya qilishini ta‘minlash uchun oqilona choralar ko‘rishi lozimligi bayon qilingan¹⁰.

CBPR tizimi biznes vakillari uchun bir qator qulayliklar taqdim etishi bilan birgalik kamchiliklardan ham xoli emasligi nazarda tutish o‘rinli hisoblanadi.

Jumladan, CBPR muvofiqligini tatbiq etish va qo‘llab-quvvatlash juda ko‘p resurslarni jalb etishni taqozo qiladi. Bu, ko‘pincha, zarur standartlarga javob berish uchun ko‘p vaqt, pul va tajribani talab qilishi, bu esa o‘z navbatida cheklangan resurslarga ega biznes vakillari uchun chegaralarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, CBPR ixtiyoriy va APECga a‘zo mamlakatlarning hammasi ham uni qabul qilmagan yoki ratifikatsiyalamagan. Natijada qamrov Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ma‘lum iqtisodlar bilan cheklanishi, bu esa transchegaraviy ma‘lumotlarni uzatish samaradorligiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy xavflardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, CBPR ma‘lumotlarni himoya qilish tamoyillarida izchillikni maqsad qilgan bo‘lsa-da, u mahalliy qonunlarni bekor qila olmaydi. CBPR bo‘yicha sertifikatlangan kompaniyalar, ayniqsa, qat‘iy yoki turli xil maxfiylik qoidalariga ega bo‘lgan hududlarda murakkabliklar va potensial mojarolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan alohida davlat qonunlariga rioya qilishga majbur bo‘lmoqdalar.

To‘rtinchidan, CBPRni qo‘llash mexanizmlari turli APEC a‘zolarining iqtisodiy jihatdan bir xilda rivojlanmaganligi uchu muvofiqlikni ta‘minlash va nizolarni chegaralar bo‘ylab bir xilda ko‘rib chiqishda tushunmovchilarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqorida sanalgan kamchiliklarga qaramasdan APEC mamlakatlari tomonidan shaxsiy ma‘lumotlarning daxlsizligini ta‘minlashda muayyan choralarning ko‘rilishi turli xil darajadagi iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan a‘zolarining ma‘lum darajada xalqaro standartlarga moslashishda dastlabki qadamlarni qo‘yishlariga turtki bo‘lib xizmat qilayotganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, APECning CBPR tizimi boshqa mintaqadagi iqtisodiy munosabatlarga ham kirib borayotganligi va tartibga solish mexanizmlarining boshqa mamlakatlarga tatbiq etilayotganligi APEC va dunyo

¹⁰ Global Cross-Border Privacy Rules (CBPR) Framework. Part IX. Accountability

o‘rtasida iqtisodiy ko‘prik vujudga kelayotganligining isboti sanaladi. Mamlakatlarning muayyan qoidalar asosida tartibli rivojlanishi pirovard maqsad bo‘lish umumiy iqtisodiy farovonlikka erishishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. Aynan APECning shaxsning muhim huquqi bo‘lgan axborotdan foydalanish va uning uchinchi shaxslarning to‘g‘ri maqsadlarda foydalanishi uchun zarur choralari insoniyatning bu sohada qilinayotgan ishlari muhim natijalarni olib kelayotganini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari Kengashidagi nutqi, 4-iyul 2023;
2. Pantri M.E, Faishal M., The role and significance of the Asia-pacific economic cooperation (APEC) in the modern Asia-Pacific region;
3. Wendy C.Y.Li. Global Distribution of Economic Values of Data and Data Flows, Moon Economics Institute. Revision date January 5, 2023;
4. The APEC CBPRs: Protecting information, driving growth, enabling innovation. Developed and published by www.cmintl.com © C&M International, 2018;
5. Global Cross-Border Privacy Rules (CBPR) Framework. 2015;
6. www.president.uz
7. www.un.org
8. www.daccess-ods.un.org
9. www.cbprs.org
10. www.wiley.law